TURK ELI

International Scientific Journal



Volume 1 | Special Issue Part 1 | 2026

Manas, Kyrgyz Republic

www.turkeli.science

TURK ELI
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

The journal is officially registered as a mass media outlet by the Justice Department of Manas Region under the Ministry of Justice of the Kyrgyz Republic in accordance with Registration Certificate No. 10339 dated March 11, 2024. The journal is registered under the title “TURK ELI” International Scientific Journal and is authorized for publication in Kyrgyz, Turkish, Uzbek, Kazakh and English languages.

Honorary President
Sarvar Ispahi

Editor-in-Chief
Jenishbek Duysheev

Deputy Editor in-Chief
Rahmonali Hasanov

Editorial Board:

Ablat Khodjaev (Prof. Dr.)
Shakimashrip Ibraev (Prof. Dr.)
Shohistahon Uljaeva (Prof. Dr.)
Kubanychbek Kalchakeev (Prof. Dr.)
Abdimajid Madraimov (Prof. Dr.)
Shukhrat Sattorov (Prof. Dr.)
Ibrahim Kush (Dr.)
Faig Elekberli (Dr.)
Erdenebayar Nasanbat (Dr.)
Gulnara Anarbaeva (Dr.)
Nurgul Aldabek (Dr.)
Nurjamal Myrzabaeva (Dr.)
Takhirjan Kazakov (Dr.)
Elmira Hazratkulova (Dr.)
Azamat Kaliev (Dr.)
Abdulvakhidkhon Nuriddinov (Dr.)

About this Special Issue

This Special Issue presents selected papers from the International Scientific Conference
Ijtimoiy fanlar va jamiyat taraqqiyoti:
barqaror rivojlanishning strategik yo‘nalishlari

Technical Editor
Laziz Baxtiyorov

Publisher: turkeli.science
E-mail: editor@turkeli.science


TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
TITU
TOSHKENT – 2022
TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI
IJTIMOIY FANLAR VA JAMIYAT TARAQQIYOTI:
BARQAROR RIVOJLANISHNING
STRATEGIK YO‘NALISHLARI
GLOBAL MIQYOS
STRATEGIYA VA TARAQQIYOT
ILM-FAN VA INNOVATSIYA
JAMIYAT VA INSON KAPITALI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
ILM-FAN ORQALI BARQAROR KELAJAK SARI
2026-yil 15-may

Contents

A. A. Djumanqulov *A. A. Beknazarov*	Psychological and Methodological Principles of Effective Lesson Time Management by Teachers	6
B. A. Khasanova *R. Abdullaev*	Digital Transformation in Central Asia: An Assessment Based on the Case of the Kyrgyz Republic	8
Yu. Akhmedov	The Strategic Importance of Crisis Communication in Ensuring National Stability in Polyethnic Societies	13
O. F. Egamberdiev	The Role, Determinants, and Effectiveness of Marketing Strategies in the Sustainable Development of the Transport System: Evidence from the Khorezm Region	17
R. Sh. Ibrahimova	Development History of Parasitology in Azerbaijan	20
B. O. Turaev	Ali Qushchi: The Scholar Who Introduced the Achievements of Ulugh Beg's Academy to the World	22
H. Hamidov	The History of Artists during the Reign of Amir Temur and the Timurid Period	26
S. Dj. Saidova	National Costume as a Historical and Spiritual Phenomenon	30
K. M. Yuldoshev	Innovation in Education	33
A. S. Kaliev *N. B. Bazarbaev*	Political Development and the Transformation of Civil Identity in Uzbekistan: The 690th Anniversary of Amir Temur and the Politics of	36
K. M. Yuldoshev *Z. Murodova*	Rabat-i Malik Caravanserai: A Key Waystation on the Great Silk Road	39
D. S. Saparboeva	Features of the Development of Logical Thinking in Primary School Mathematics Lessons	42
Sh. O. Sayfullaeva	Developing Reading Skills through Authentic Texts in Teaching Russian as a Foreign Language	44
N. Kh. Kholyigitova	The Role of Personal Values–Oriented Career Planning in Higher Education for Societal Development	46
M. N. Inatov	The Application of Sociological and Historical Analysis Methods in Letter Analysis	48
M. G. Nazarova	Socio-Psychological and Educational Strategic Directions for Preparing Future Engineers for Professional Activity in the Context of Societal Development	51
I. H. Jabrayilov	Common Turkish History: Research and Teaching Issues	54
O. V. Kon	Preparing the Next Generation of Social Educators in Higher Education: A Competency Model in the Context of Global Societal Challenges	56
D. A. Egamberdieva	The Semantic Characteristics of Nature Symbols in Uzbek and English Fairy Tales	60
Q. H. Inoyatov	The Scientific Legacy of Our Great Ancestors as a Source of Education and Moral Values	64
A. J. Toshboboev	The Integration of Social Sciences and the Education System for Sustainable Societal Development: An Analysis of Historical and Contemporary Approaches	66
G. B. Ernazarov	The Role of the Service Sector in the National Economy: Significance, Economic Analysis, and Strategies for Improvement	69
Ə. M. Zeynalov	Azerbaijan in French Literature	72
K. M. Gulomova	The Role of Modern Pedagogical Technologies in Enhancing Teachers' Professional Competence	76
S. Ibrohimov	Culture and Historical Heritage as Economic Resources: Innovative Management and Strategies for Sustainable Growth	79
J. O. Kucharov	Enhancing Workforce Potential in Small Business Enterprises in Uzbekistan	82

The Role of the Service Sector in the National Economy: Significance, Economic Analysis, and Strategies for Improvement

Ernazarov Gulam Bekbaevich (PhD in Economics, Associate Professor)[1]

[1.] Tashkent Institute of Technology, Management and Communications
Tashkent, Uzbekistan

Abstract.
In this article, the author explores the specific significance, role, nature, and characteristics of the service sector. The role and significance of the service sector in the economy are explored, a statistical analysis is conducted, and the author develops proposals and recommendations.
Keywords: services, service provision, high-quality public services, consulting services, housing and communal services, living conditions of the population, healthcare and social services, services provided per capita

Xizmatlar sohasining milliy iqtisodyotda tutgan urni, ahamiyati, uning iqtisodiy tahlili va uni takomillashtirish yo‘llari

Ernazarov Gulam Bekbaevich (iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent)[1]

[1.] Toshkent texnologiya, menejment va kommunikatsiya instituti
Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya.
Mazkur maqolada xizmatlar sohasining o’ziga xos ahamiyati, urni, mohiyati va xizmatlar sohasining o’ziga xos xususiyatlari muallif tomonidan ko’rib chiqilgan. Xizmatlar sohasining iqtisodiyotdagi roli va ahamiyati ochib berilgan va uning stanistik tahlili qilingan hamda muallif tomonidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: xizmatlar, xizmat ko‘rsatish, aholiga sifatli xizmat ko‘rsatish, konsalting xizmatlari, uy-joy kommunal xo‘jaligi, aholi turmush sharoiti, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar

Kirish. O‘zbekistonda iqtisodiyotning barcha sohalari kabi xizmatlar sohasining ahmiyati juda katta va dolzarbdir. Shunday ekan, bu, eng avvalo ishlab chiqarishning murakkablashishi, bozorning tovarlar bilan to‘yinganligi, jamiyat hayotiga yangiliklar kirituvchi fan-texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq. Bularning barchasi axborot, moliyaviy, transport, konsalting xizmatlari va boshqa turdagi xizmatlar mavjudligini taqozo etadi. Bu borada ***O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 27 fevraldagi “Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-78-sonli qarorining*** qabul qilinishi sohaning milliy iqtisodiyotimizda to‘tgan o‘rni va ahamiyati nihoyatda muhimligini ko‘rsatib bermoqda[2].

2022–2026 yillarda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida aniq chora-tadbirlar belgilanib, bunda «....arzon uy-joylar barpo etish, yo‘l-transport, muhandislik – kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ... »[3] yuzasidan muhim vazifalar belgilab olindi. Strategiyada belgilab berilgan ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda, bugungi kunda mamlakatimizda xizmatlar sohasining ahamiyatini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Mavzuning dolzarbligi. “O‘zbekiston–2030” taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan ustuvor vazifalar muvaffaqiyatli hal etilishi xizmat ko‘rsatish sohasining iqtisodiy samaradorligini oshirish hisobiga respublikamiz aholisiga sifatli xizmat ko‘rsatishning aniq chora-tadbirlarini ishlab chiqish, statistik ko‘rsatkichlar tizimini takomillashtirish va istiqbollarini statistik prognozlashni talab etadi. Respublikamizda xizmat ko‘rsatish sohasini iqtisodiy-statistik tahlil qilish, soha faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillarni kompleks statistik baholash hamda iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan, ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolani yopitishda statistik kuzatuv, mantiqiy yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, analitik tahlil va qiyosiy statistik tahlil ucullapdan atroflicha foydalanildi. Ma’lumotlap qiyosiy tahlil qilinib, xizmatlap sohasining istiqbollapi, iqtisodiy ko‘psatkichlapi, xizmat ko‘psatish sohasining pivojlanishi va cohadagi muammolap o‘rganilib, ular nazapiy jihatdan yopitib bepishga hapakat qilindi. Tadqiqot ishimizda xizmat ko‘rsatish sohasi va uning asosiy turlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari statistik tahlil qilindi. Tadqiqot ob’ekti sifatida xizmat ko‘psatish sohasi o‘pganildi.

Asosiy qism (tahlillar va natijalar). Biz bilamizki xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko‘rsatishni o‘z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste’mol xizmatlarini ko‘rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Shunday ekan bugungi zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasi aholining barcha qatlamlarini keng qamrab oladi va jamiyatda sodir bo‘layotgan deyarli barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatadi, bu esa mazkur masalaning qanchalik muhim va ahamiyatli ekanligini ko‘rsatib beradi.


2025-yil yanvar-fevral oylarida dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha, norasmiy a yashirin iqtisodiyotni baholash bo‘yicha o‘tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi 5 358,4 mlrd so‘mni tashkil etdi. 2024-

yil mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 108,5 % ni tashkil etib, uning hajmi esa 876,9 mlrd so‘mga o‘sishi qayd etildi.

2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan (2 211,0 ming so‘m) 2025-yilning mos davrida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 389,5 ming so‘mga yoki 6,8 % ga o‘sib, 2 600,5 ming so‘mni tashkil etgan.

2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 774,0 mlrd so‘mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining 70,4 % ini, jumladan, 37,5 % ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi “Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo‘llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo‘yicha maqsadli parametrlari belgilangan.



1-rasm. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘sish sur‘ati dinamikasi

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari (1-rasm) umumiy hajmining o‘sishida yashash va ovqatlanish xizmatlari 9,4 % ga (o‘sishiga hissasi 2,4 band), transport xizmatlari 12,6 % ga (o‘sishiga hissasi 2,3 band), savdo xizmatlari 8,3 % ga (o‘sishiga hissasi 1,7 band), moliyaviy xizmatlar 2,9 % ga (ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o‘sishiga hissasi 0,5 bandni tashkil etdi), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 16,1 % ga (o‘sishiga qo‘shgan hissasi 0,4 band) va ta’lim xizmatlar 1,4 % ga (o‘sishiga hissasi 0,1 band) asosiy omili bo‘lib hisoblanadi.

2025-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari 26,1 %, transport va savdo xizmatlari 19,4 %, moliyaviy xizmatlar 13,4 %, ta‘lim sohasidagi xizmatlar 3,8 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari esa 3,5 % ulushini tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2024-yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari 25,2 foiz, savdo xizmatlari 20,5 foiz, transport xizmatlari 18,3 foiz, moliyaviy xizmatlar 18,3 foiz, ta’lim sohasidagi xizmatlar 3,9 foiz, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari esa 3,4 foiz ulushni tashkil etgan.

2-jadval

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari

(yanvar-fevral)

	Hajmi, mlrd so‘m		**O‘sish sur’ati, %**
	2024-y.	**2025-y.**	
Xizmatlar jami	**4 481,5**	**5 358,4**	**108,5**
shundan:			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	152,1	189,9	116,1
moliyaviy xizmatlar	676,9	719,9	102,9
transport xizmatlari	821,8	1 038,3	112,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	760,9	949,3	111,1
yashash va ovqatlanish xizmatlari	1 127,6	1 400,9	109,4
savdo xizmatlari	918,4	1 036,9	108,3
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	70,9	84,5	110,3
ta’lim sohasidagi xizmatlar	176,1	206,1	101,4
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	84,0	99,4	106,5
ijara xizmatlari	75,6	99,2	103,2
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	95,7	117,3	112,8
shaxsiy xizmatlar	93,0	119,4	107,9
me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	29,2	42,7	114,8
boshqa xizmatlar	160,2	203,9	107,0

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmining o‘sishiga telekommunikatsiya xizmatlarining o‘sishi ta’sir ko‘rsatdi. 2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida ushbu turdagi xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 78,9 foizni tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan esa 16,5 foizga o‘sgan.

Tahlillarimiz ko‘rsatdiki, 2025-yil yanvar-fevral oylarida dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo‘yicha o‘tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi 5 358,4 mlrd so‘mni tashkil etdi. 2024-yil mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 108,5 % ni tashkil etib, uning hajmi esa 876,9 mlrd so‘mga o‘sishi qayd etildi.

2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan (2 211,0 ming so‘m) 2025-yilning mos davrida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 389,5 ming so‘mga yoki 6,8 % ga o‘sib, 2 600,5 ming so‘mni tashkil etgan.

2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 774,0 mlrd so‘mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining 70,4 % ini, jumladan, 37,5 % ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

Xulosa. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi “Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo‘llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo‘yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmi o‘sishiga moliyaviy xizmatlarning 23,7 %ga (jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining mutlaq o‘sishiga ta’siri 4,0 foiz band hissa qo‘shdi), transport xizmatlarining 12,0 %ga (o‘sishiga ta’siri 2,2 foiz bandni), savdo xizmatlarining 11,8 %ga (o‘sishga ta’siri 2,1 foiz bandni), yashash va ovqatlanish xizmatlarining 9,0 %ga (o‘sishiga ta’siri 1,9 foiz bandni), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 21,2 %ga (o‘sishiga ta’siri 1,4 foiz bandni),

boshqa xizmatlarning 12,2 %ga (o‘sishiga ta’siri 0,6 foiz bandni), shuningdek, ijara xizmatlari 19,5 %ga va ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlarning 10,8 %ga (o‘sishiga ta’siri 0,3 foiz bandni) o‘sishi asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Me’morchilik sohasidagi xizmatlar 15,8 %ga, sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar 12,6 %ga, kompyuter va maishiy texnikani ta’mirlash xizmatlari 11,7 %ga, shaxsiy xizmatlar 11,4 %ga va ta’lim sohasida 3,4 %ga o‘sib, umumiy ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining 0,9 foiz bandga o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Ushbu qarordan kelib chiqib, 2025 yilda xizmatlar sohasini rivojlantirishning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari belgilab olindi:

▪ xizmatlar hajmini 15 foizga oshirish;

▪ sohada 3 million kishini daromadli mehnat bilan ta’minlash;

▪ 52,2 mingta xizmat ko‘rsatish ob’ektlarini tashkil etish.

Prezidentning 2022 yil 27 yanvardagi PQ–104-son qarorida nazarda tutilgan xizmatlar ko‘rsatuvchi tadbirkorlarga 1 foizlik ijtimoiy soliq stavkasining amal qilish muddati 2028 yil 1 yanvargacha uzaytirildi.

2025 yilda sohaga quyidagi miqdorida kredit mablag‘lari yo‘naltiriladi:

◊ xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun 67,4 trillion so‘m;

◊ xizmat ko‘rsatish ob’ektlarini tashkil etish uchun developerlar orqali tadbirkorlik sub’ektlariga noturar joylarni lizingga berishga 4,5 trillion so‘m.

Hududlarda 2025 yilda quyidagi 652 ta drayver loyihalarni infratuzilma bilan ta’minlash uchun 1 trillion so‘m yo‘naltiriladi:

— 72 ta sohil bo‘yi dam olish maskanlari;

— 62 ta zamonaviy qiyofadagi istirohat bog‘lari;

— 154 ta tun-u kun faoliyat yuritadigan turizm va gastronomik yo‘nalishlarga ixtisoslashgan savdo va ko‘ngilochar ko‘chalar;

— 364 ta yo‘l bo‘yi va boshqa servis ob’ektlari.

Bu islohatlarning uzviyligini davom ettirish, xususan, xizmat ko‘rsatish sohasini istiqbolda tizimli rivojlantirish va uning sifatini yanada oshirish borasida ushbu qarorda ko‘plab maqsad va vazifalar belgilab berildi.

References

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 26 dekabrdagi Oliy Majlis va O’zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. // www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 27 fevraldagi “Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-78-sonli Qarori. // www.lex.uz
3. O‘zbekiston Pespublikasi Ppezidenti Sh.M.Mipziyoevning 2023 yil 11 sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni. // www.lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022—2026 yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. // www.lex.uz
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 yanvardagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-104-sonli qarori. // https: // lex.uz/docs/5840284
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 maydagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5113-sonli qarori. //
7. Bupmenko T.D. Sfepa uslug: ekonomika: uchebnoe posobie / T.D. Bupmenko, N.N. Danilenko, T.A. Tupenko; pod ped. T.D. Bupmenko. - M.: KNOPUS, 2007. – 328 s. – S. 64-65.
8. Yu.V. Meleshko «Transformatsiya opredeleniya ponyatiya «uslug» v kontekste konsepsii postindustrialnogo obщestva” // Rossiya: Internet-jurnal “Ekonomicheskaya nauka segodnya” №4. 2016 g.
9. Muhammedov M.M. “Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish - ustuvor masala”. Servis jur. №1, 2009.- 47-56 b.